

**SHAKARIM XUDOYBERDIYEVNING “LAYLI-MAJNUN”
DOSTONINI SHARHLAB O‘QITISH**

Ergash Abduvalitov,
*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat
pedagogika universiteti,
Qozoq tili va adabiyoti kafedrasini mudiri
pedagogika fanlari doktori, professor*
abduvalitov64@mail.ru

Jannur Amangeldiyeva,
3-kurs talabasi

Rezyume. Ushbu maqolada qozoq xalqining buyuk shoiri Shakarim Xudayberdiyevning “Layli-Majnun” dostonini sharhlab o‘qitishning samarali yullari va usullari haqida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar: adabiyot, shoir, xamsa, doston, sharhlab o‘qitish, usul, obraz, adabiy an‘ana.

Резюме. В статье рассматриваются эффективные способы и методы преподавания поэмы “Лайли-Меджнун” великого казахского поэта Шакарима Худайбердиева.

Ключевые слова: литература, поэт, хамса, эпос, интерпретационное учение, метод, образ, литературная традиция.

Resume. This article is devoted to the effective ways and methods of teaching the poem “Layli-Majnun” by the great Kazakh poet Shakarim Khudaiberdiev.

Key words: literature, poet, khamisa, epic, interpretative teaching, method, image, literary tradition.

Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning adabiyot dasturida mumtoz adabiy namunalari katta o‘rin ajratilgan. Ma’lum ma’noda qozoq xalqi tarixining badiiy salnomasi hisoblanadigan bu asarlarning orasida o‘xshash syujetli yoki muayyan adabiy an‘analar ta’sirida yozilganlar ham talaygina. Shulardan biri Shakarim Xudayberdiyevning “Layli-Majnun” dostonidir. [1; 340-400 b.]

Biz quyida adabiyot darslarida ushbu asarni sharhlab o‘rganishga oid tajribalarimiz bilan o‘rtoqlashamiz.

Ta’lim qozoq tilida olib boriladigan maktablarning adabiyot dasturida Shakarim ijodiga katta o‘rin ajratilishi bejiz emas. XIX asrning ohiri XX asrning boshida yashab ijod etgan, qozoq xalqining fahri sanalgan Shakarim Xudayberdiyev o‘z asarlari bilan qozoq adabiyoti va madaniyatining yuksalishiga xizmat ko‘rsatgan o‘lug‘ so‘z san’atkoridir. Shakarim qalamiga mansub “Yenglik-Kebek”, “Yoshlarga”, “Dubrovskiy hikoyasi”, “Qalqaman-Mamir”, “Armon”, “Layli-Majnun” asarlari qozoq adabiyotining mumtoz namunalari hisoblanadi. Ulardan “Layli-Majnun” dostoni sharqda mashhur xamsachilik an‘analari asosida yuzaga kelgan bo‘lib,

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

mazkur asarni o‘rta maktabda o‘rganish o‘qituvchi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi.

Shakarimning “Layli-Majnun” dostonining yaratilish davri va unda quyilgan muammolarning murakkabligidan kelib chiqib, o‘qituvchi asarni sharhlab o‘rganishni rejalashtirgani maqul.

“Layli-Majnun” ilk bor “Sholpan” jurnalida (1923) bosilib chiqqandan keyin atoqli shoir Saken Seyfullinning bevosita ko‘magi va tashabbusi bilan kitob holida nashr etiladi.

O‘qituvchi “Layli-Majnun” tahliliga o‘tishdan oldin XX asr boshida o‘lkadagi ijtimoiy-siyosiy ahvol, madaniy hayot hamda shoirning hayoti va ijodi tug‘risida quyidagicha ma’lumot beradi:

Shakarim Xudayberdiyev (1858-1931) – shoir, nosir, faylasuf, tarjimon, tarixchi, jurnalist. Tug‘ilgan joyi – Sharqiy Qozog‘iston viloyati, Chingiztog‘ ovuli. Ma’lumoti oliy. Mustaqil tarzda turk, fors, arab, rus tillarini mukammal o‘rgangan va ushbu tillardagi asarlarni mutolaa qilgan. Xo‘ja Hofiz, Fuzuliy, Navoiy, Firdavsiy, Sa‘diy, Gyote, Pushkin, Lev Tolstoylarni o‘zining piri hisoblagan. Sh.Xudayberdiyev 1931-yili 73 yoshida Chingiztog‘da vafot etgan.

Shundan so‘ng o‘qituvchi dostonning adabiyot tarixidagi o‘rniga to‘xtaladi. Avvalo, dostonning mazmunini, notanish so‘zlarni sharhlab tushintiradi. G‘arapta – Arabistonda; tabib – shifokor; baytolla – Makkada nomoz o‘qidigan xona; sajda – joynomozdagi qiblani ko‘rsatadigan belgi; beyit – uy, uya. Bu va boshqa so‘zlar o‘qituvchi tarafidan izohlab beriladi va hikoyasini davom etadi:

Qadimgi arab adabiyotida (VII-VIII asrlar) “Layli-Majnun” deb atalgan afsona, ertak, rivoyatlar mavjud bo‘lgan. Bu mavzuni yaqin Sharq xalqlari adabiyotida birinchi bo‘lib, ozarbayjon xalqining buyuk shoiri Nizomiy Ganjaviy yoritgan, keyinchalik Xusrav Dehleviy va Alisher Navoiy davom ettirgan. Shundan boshlab Layli va Majnun haqida doston yaratish turkiy xalqlar adabiyotida an’anaga, shoirlarning badiiy mahoratini belgilovchi mezonga aylandi.

Shakarim Xudayberdiyev ham “Layli-Majnun” dostoni orqali sharq allomalariga shogird sifatida qo‘l berib, ular bilan ijodiy musobaqaga kirishdi. Layli va Majnunning ma’lum va mashhur muxabbati tarixiga oid syujetni ibratli hikoyatlar bilan qozoq adabiyoti erishgan yutuqlar darajasida boyitishga muvoffaq bo‘ldi.

Shu xildagi izohlardan keyin o‘quvchilar asardan quyidagi lavhalarni o‘qiydilar. Bir o‘quvchi bir lavhani o‘qiydi, ikkinchisi uning mazmunini sharhlab beradi:

1-o‘quvchi: Fuzuliydan ayta olmam mingdan birin,
Ta’rifiga til ojiz purma’no she’rim.
Majnunning nomin bilar, o‘zin bilmas

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Qozoqqa bildirayin biroz sirin. [2]

2-o‘quvchi: Shoir bu baytni Sharq allomalaridan, xususan Fuzuliy kabi yoza olmasa ham, qozoq xalqiga Majnunni, uning ishq dardini bildirayin deb yozishga kirishganini ma’lum qiladi.

1-o‘quvchi: Har kim oshiq bo‘lib tug‘ilmas,

Noyob narsa el ichra ko‘p tarqalmas.

Layli ila Majnun ishq mushkuldir

Hech kim uning zamiriga yetolmas. [2]

2-o‘quvchi: Shoir bu baytda chin muxabbatni ulug‘lab, uning har kimga nasib qilavermasligini, ko‘pchilik Majnun bilan Laylining ishqiy savdosini tushina olmasligini aytdi.

Bundan tashqari o‘qituvchi dostonning qisqacha umumiy mazmunini quyidagicha tushintiradi va o‘quvchilarga asar matnini ifodali tarzda o‘qitadi. “Layli-Majnunni” sharhlab o‘qitish bilan bir jarayonda Majnun, Naufal, Ibn Salam, Zayid kabi qahramonlar tarixiga alohida e’tibor beradi:

“Qays Layliga bo‘lgan muxabbati tufayli Majnunga, ya’ni telbaga aylanadi. U Laylining nomini zikr etib, o‘ziga-o‘zi gapirib, hayolga beriladi. Natijada xalq Qays degan nomini unutib, uni tentak, jinni “Majnun” deb atay boshlaydi. El orasidagi mish-mish xangomaga chiday olmagan Laylining ota-onasi boshqa yerga ko‘chib ketadi. Kun choshtohga yetganda Majnun qarasa, bir karvon ketib borayapti. Bular mendan qochib ketyapti, izidan qolmayin deb Majnun ham yulga tushadi va izma-iz boraveradi. Bir yerga borganda Layli kuchigiga qarata: “Tur” deydi. “Tur” degan so‘z Majnun qulog‘iga chalinib, yulda qotib turib qoladi. Qimirlasam topa olmay qoladi deb necha kunlar shu alpozda qimirlamaydi”. [3; 278-351 b.]

Shoir Majnun obrazini buyuk, ishq ramzi tarzida ifodalaydi. Shu g‘oyani ilgari surishda aql-idrokli insonlar izlaganlarinijamiyatdan topa olmay qiynalganini bayon etadi:

Besh narsam bor oshiqona izlagan,

Nomlarini bilsin meni anglagan:

Muxabbat, adolat va toza yurak,

Erkinlik, teran ilm-ishqimga tirkak. [2]

O‘qituvchi Layli obrazini sharhlash jarayonida ham u bilan Majnun o‘rtasidagi chin va samimiy sevgi tarixiga alohida urg‘u beradi: “Majnun kabi Layli ham chin muxabbatni ulug‘laydi. Alloh ikki yosh qalbiga muxabbat, mardlik va jasorat urug‘ini sochadi. Xar qanday og‘ir vaziyatda ham ular o‘z maslagiga sodiq qoladilar. Ularning ulug‘ maqsad yulidagi kurashlari tarixi xar bir yosh avlod uchun chinakam ibrat namunasidir”.

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

Xullas, Shakarim Xudayberdiyevning sharq adabiyoti adabiy anʼanalari asosida yaratgan “Layli-Majnun” dostoni yosh avlodning estetik didini oʻstirishga, dunyoqarashini boyitishda insonparvarlik tuygʻularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Xudoyberdiyev. Tanlangan asarlar. Almaty; “Jazushy”, 1988. 340-400-betlar.
2. Sheʼriy parchalar tarjimai muallifniki.
3. Bahrom va Gulandom. Oʻzbek xalq adabiyoti. T.: Oʻqituvchi, 1988. 278-351-betlar.
4. Abduvalitov E. Aesthetic Education and Perception in the Teaching of Literature of Fraternal Peoples. <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com
5. Abduvalitov E. The Effective Ways of Teaching the Literature of Fraternal Nations in General Secondary Schools. <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v6i6.1428>
6. Abduvalitov N. Ways of Teaching Samples of World Literature at Literature Classes by Grene Features. <http://ijmmu.com> editor@ijmmu.com ISSN 2364-5369 Volume 9, Issue 3 March, 2022 Pages: 219-223.
7. Duysabayeva D.U. Formation of Linguo-Culturological Competence of Future Native Language Specialists. <https://ijssrr.com/journal/issue/view/21>.
8. Duysabayeva D.U. THE ROLE OF EDUCATIONAL PRACTICE IN THE PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE NATIVE LANGUAGE TEACHERS. <https://doi.org/10.55640/jme-03-06-05>
9. Nurjan B. Abduvalitov, Ergash B. Abduvalitov, Baurjan N. Sayfullaev. "METHODS OF COMPARATIVE ANALYSIS IN THE STUDY OF SAMPLES OF UZBEK AND WORLD LITERATURE" <https://spast.org/techrep/article/view/4576>
10. Nurymbetovich, S. B. (2023). Dialectisms in the Language of Literary Works. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 4(6), 33-39.
11. Sayfulayev B. Some Problems of Phraseology of Turkic Languages (On the Example of Eye Phraseosomatizm). <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v5i4.263>
12. Sayfulayev B. Some Problems of Phraseology of Turkic Languages (On the Example of Eye Phraseosomatizm). <http://dx.doi.org/10.47814/ijssrr.v5i4.263>
13. Sayfulayev B. Structural Features of Uzbek-Kazakh Dialectal Phrasemas. <https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/311>

“O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA MATERIALLARI

14. Sayfulayev B. Structural Features of Uzbek-Kazakh Dialectal Phrasemas.
<https://cajssh.centralasianstudies.org/index.php/CAJSSH/article/view/311>
15. Yusupov B.B. Motherland and Patriotism in the Lyrics of Tulegen Aibergenov.
<https://ijssrr.com/journal/issue/view/28>
16. Yusupov B.B. SOCIAL DEVELOPMENT STRATEGY: SOCIO-CULTURAL COMPETENCE AND LITERARY EDUCATION.
<https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/307>